6. Foto galereya yaratish



Foto galereya yaratish.

Reja:

1. Ommaviy bo’lgan teglar

2. Rasmlar va videotasvirlarni o’rnatish

3. Alternativ matn

< IMG> - bu eng ommaviy bo’lgan teglardan biri, web-dizaynerlarning ko’p ishlatadigan teg. Bu teg rasmlarni JPEG va GIF formasini ishlatadi.

Parametrlari:

-SRC – shart bo’lgan parametr , rasmli faylni adresini ko’rsatadi.

-HEIGHT i **WIDTH** – tasvirni kengligi va balandligini aniqlaydi.

-ALIGN - shart bo’lgan parametr. Tasvini siljitish, joyini o’zgartirish uchun ishlatiladi. U quyidagi qiymatlarni oladi:

-left – tasvirni chap tomonga joylashtiradi.

-**right** - tasvirni o’ng tomonga joylashtiradi.

-**top** i **texttop** – tasvirni tekstning yuqori qismi bo’yicha to’g’rilaydi.

-**middle** - tasvirni tekst chizig’i bo’yicha o’rtaga joylashtiradi.

-absmiddle - tasvirni tekst qatori bo’yicha o’rtaga joylashtiradi.

-bottom i **baseline** - tasvirni tekstning quyi qismi bo’yicha to’g’rilaydi.

-absbottom - tasvirni tekstning quyi chegarasi bo’yicha to’g’rilaydi.

-NAME – tasvir nomini aniqlaydi, bu xujjat uchun katta ahamiyatga ega. Siz ixtiyoriy nom berishingiz mumkin bo’sh joysiz, lotin harflari va raqamlarda.


-ALT – tekstni aniqlaydi, tasvir o’rnida ko’rinib turadi.

-BORDER – tasvir xoshiyasidagi ramkaning kengligini pisksellarda tasvirlaydi. Ramka paydo bo’ladi, faqat tasvir gipertekstli ssылka bo’lsa. (BORDER=0)

Masalan:

< IMG src="img\Frankfurt.jpg" WIDTH= "140" HEIGHT= "100" ALT = "Rasm" BORDER= 5 ALIGN= "left" >

Rasmlar va videotasvirlarni o’rnatish




HTML tili yordamida rasm yoki videotasvirlarni o’rnatishni quyidagi misol yordamida ko’rishimiz mumkin:

Rasm o’rnatish: **< img border="0" src="img/PINGVIN.gif" width="350" height="200">**

Videotasvirni o’rnatish:

< img border="0" dynsrc=" img/Frankfurt-1.avi" start="fileopen" width="350" height="200">

Image not found or type unknown



Rasm Videotasvir

Web saxifalar yaratishda JPG, GIF va PNG formatli grafik fayllardan foydalanish mumkin.

GIF- maxsus tarmoqli format bo’lib, fayl xajmi oz jadval yoki xujjatning orqa foni sifatida foydalanish mumkin. Lekin gif fayllar 256 xil rangda ishlaydi, shuning uchun fotosuratlarni saqlashda unumsizdir. JPG esa ranglardan cheksiz foydalanadi, lekin animassiya yarata olmaydi. Ikkala kamchilikni to’ldiruvchi yangi format –PNG fayldir, lekin buning kamchiligi eski brauzerlar PNG-formatli fayllarni ko’rmasligi mumkin.


Alternativ matn

Dastlabki brauzerlar rasmlarni namoyish qila olmagan. Bundan tashqari ba`zi foydalanuvchilar matnlar bilan ishlashni tezlashtirish maqsadida rasmlarni ekranga yuklashni ataylab bekor qilib qo’yadi. Shuningdek rasm

yo’qotilganda yoki buzilganda rasmning o’rnida alt=”...” xususiyatida berilgan matn xosil bo’ladi. Xosil bo’luvchi matn qo’shtirnoq ichida yozilishi lozim:

< img src=netu.gif alt=”Bu surat!”>

Image not found or type unknown



Endi veb sahifaga audio fayl qo‘yamiz.

```
< html>
  < head>
    < meta http-equiv="Content-Type" charset="utf-8">
    < title>OBJECT< /title>
  < /head>
  < body>
```

< object type="audio/mpeg" data="Radius21.mp3" width="400" height="300">< /object>

< /body>

< /html>